XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-iyun VI-87-56-7-99-K/24 Nurobod tumani

Xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-80-127-7-99-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori hamda bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli ko‘rsatma xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining, oltinchi chaqiriq, sakson yettinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b Xudayberdiyevning xalq deputatlari tumani Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-80-127-7-99-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish va suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish hamda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-80-127-7-99-K/23-sonli “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 1-2-ilovalari ya’ni mahalliy budjet daromadlar (suv solig‘ining prognoz qilingan summasi) va xarajatlari (Suv yetkazib berish xizmati DM saqlash xarajatlari) 40 foizga teng miqdorlarda oshirilsin.

3. Quydagilar:

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-80-127-7-99-K/23-sonli qarorining 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Samarqand viloyati Nurobod tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-80-127-7-99-K/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev), “Nurobod” gazetasi (N.Botirova)larga mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e’lon qilish, imzolangandan so‘ng bir kun ichida tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (D.Korayev)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi OBLANOV BAHRAM YO‘LDASH O‘G‘LI

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 24-iyundagi
VI-87-56-7-99-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Nurobod tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**115 973 000,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	56 010 000.0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 192 000.0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 120 000.0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	980 000.0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 100 000.0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 186 000.0
7	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 390 000.0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 580 000.0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 578 000.0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno)	1 708 000.0

11	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	8 529 000.0
12	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	70 000.0
13	Yig‘imlar	530 000.0

Xalq deputatlari Nurobod tumani
Kengashining
2024-yil 24-iyundagi
VI-87-56-7-99-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Nurobod tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2024-yilgi asosiy ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

T/r	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**195 575 274,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	30 974 440.0
2	Tibbiyot birlashmasi	87 480 635.0
3	Madaniyat bo‘limi	3 904 929.0
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	9 596 171.0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 092 643.0
6	Tuman hokimligi	46 647 631.0
7	Tuman Soliq inspeksiyasi	5 319 803.0
8	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 841 022.0
9	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 230 000.0
10	“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	488 000.0